

## SARBADORLAR HARAKATI

**Burxonova E'zoza Farxod qizi**

Jizzax Davlat Pedagogika Universitet

Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20205559>

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada XIV asrda Xuroson va Movarounnahr hududlarida yuzaga kelgan Sarbadorlar harakati, uning kelib chiqish sabablari, rivojlanish bosqichlari va tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi. Harakatning mo'g'ullar hukmronligi hamda mahalliy zodagonlar zulmiga qarshi xalq noroziligi natijasida shakllangani yoritiladi. Shuningdek, Sarbadorlar davlatining tashkil topishi, uning siyosiy faoliyati va 1365-yildagi Samarqand qo'zg'oloni voqealari ko'rib chiqiladi. Maqolada ushbu harakatning Amir Temur davlatchiligining shakllanishiga ko'rsatgan ta'siri ham tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Sarbadorlar harakati, XIV asr, Movarounnahr, Xuroson, Sabzavor, Samarqand qo'zg'oloni, mo'g'ullar zulmi, xalq harakati, Amir Temur, tarixiy jarayon.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье анализируется движение сарбадаров, возникшее в XIV веке на территории Хорасана и Мавераннахра, его причины, этапы развития и историческое значение. Освещается, что движение сформировалось как результат народного недовольства против монгольского господства и притеснений местной знати. Также рассматриваются образование государства сарбадаров, его политическая деятельность и события Самаркандского восстания 1365 года. Особое внимание уделяется влиянию данного движения на формирование государственности Амира Темура.

**Ключевые слова:** движение сарбадаров, XIV век, Мавераннахр, Хорасан, Себзевар, Самаркандское восстание, монгольское господство, народное движение, Амир Темура, исторический процесс.

**ABSTRACT.** This article analyzes the Sarbadars movement that emerged in the 14th century in the regions of Khorasan and Movarounnahr, including its causes, stages of development, and historical significance. The movement is shown to have arisen as a result of popular resistance against Mongol domination and the oppression of local elites. The study also examines the formation of the Sarbadars state, its political activities, and the events of the Samarkand uprising of 1365. Particular attention is given to the influence of this movement on the formation of Amir Temur's statehood.

**Keywords:** Sarbadars movement, 14th century, Movarounnahr, Khorasan, Sabzavor, Samarkand uprising, Mongol rule, popular movement, Amir Temur, historical process.

XIV asrda Movarounnahr osmoni ostida zulm va adolatsizlik hukm surar, mo'g'ullar bosqini xalq hayotini izdan chiqargan edi. Ana shunday og'ir davrda adolat va ozodlik yo'lida bosh ko'targan Sarbadorlar harakati tarix sahnasiga chiqdi Sarbadorlar harakati mo'g'ullar zulmi va zamona hukmdorlarining adolatsizligiga qarshi xalq noroziligi natijasida yuzaga kelgan. Muarrixlar ko'pincha shohlar va sultonlar tarixini yozgan bo'lsalar-da, sarbadorlar harakati alohida tarix sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Bu harakatning boshlanishi Sabzavor yaqinidagi Boshtin qishlog'ida yashagan Xoja Fazlullohning o'g'li Abdurazzoq bilan bog'liq. U Sulton Abu Sayidxon xizmatida bo'lgan va soliq yig'ish vazifasini bajargan. Keyinchalik u siyosiy vaziyatdan foydalanib, o'z yurtiga qaytadi va zolim amaldorga qarshi

chiqadi. Shu voqea sarbadorlar harakatining boshlanishiga sabab bo'ladi. "Sarbadorlar" nomi ham aynan shu voqealar bilan bog'liq bo'lib, ular o'z jonini tikib kurashganliklarini ramziy tarzda ifodalagan. Abdurazzoq boshchiligidagi harakat qisqa vaqt ichida kuchayib, Sabzavorni egallaydi va 1337-yilda sarbadorlar davlati tashkil topadi. Keyinchalik ichki nizolar natijasida Abdurazzoq o'ldiriladi va hokimiyat uning ukasi Mas'ud qo'lga o'tadi. U davlat hududini kengaytirib, Nishopur va Jomni qo'shib oladi hamda dushmanlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib boradi. Birinchi yirik qo'zg'olon 1337-yil Sabzavor hokimining jiyani Boshtin qishlog'iga kelib, aholiga zulm qilishi natijasida ko'tarilgan. O'zlarini sarbadorlar deb Sabzavorni egallab Sarbadorlar davlatini tuzadilar va Nishopur, Tusni ham zabt etadilar. 1353-yil oxirida mo'g'ul Elxonini o'ldirib, o'rdasini yakson qilib Astrobodni ham o'z davlatlariga qo'shib oldilar. Bu davrga kelib Sarbadorlar davlatiga butun Janubiy Xuroson ham kirgan.

1365-yil Samarqandda mo'g'ul bosqinchilariga qarshi Sarbadorlar qo'zg'oloni boshlanadi. Qo'zg'olonga Mavlnozoda rahbarlik qildi. Abu Bakr Kalaviy Naddof, Xurdaki Buxoriy unga yordamchi bo'ldilar. Shaharni mudofaa qilish maqsadida shaharning barcha darvozalarini berkitib, ko'chalar, bog'lar atrofiga g'ovlar qurirdilar. Mo'g'ullar ikki kun hujum qilib Samarqandni ololmadilar. Uchinchi kuni Samarqand atrofi qishloqlarini talab, Movarounnahrni tark etdilar. Sarbadorlarning g'alabasi Amir Husaynni xavotirga soldi. Amir Husayn Balx, Badaxshon, Qunduz, Bag'lon, Andhud, Shibirg'on viloyatlaridan qo'shin to'plab Samarqand sari yurdi. Amir Husayn Konigil maydoniga yetib kelgach, sarbadorlar tortiqlar bilan uning huzuriga keldilar. Amir Husayn ularni ziyofat qilib, sovg'a-salomlar beradi. Ertasi kuni sarbadorlar vakillarini Karbos mavzeida hibsga olinadi va dorga osiladi. Faqat shu kuni Konigilga yetib kelgan Amir Temur Mavlnozodani dor tagidan saqlab qoladi. 1373-yil mahalliy mulkdorlarga qarshi Kermonda Sarbadorlar qo'zg'oloni boshlanadi. Mulkdorlarning mol-mulkini musodara qilinadi, amaldorlarni hibsga olinadi. 1374-yil shoh Shujo Muzaffar tomonidan qo'zg'olon bostirildi.<sup>1</sup>

Sarbadorlar XIV asrda Xuroson va Movarounnahrda mo'g'ul va mahalliy zodagonlarga qarshi ko'tarilgan xalq ozodlik harakati qatnashchilaridir. So'zma-so'z ma'nosi — o'z boshini dorga tikkanlar. Sarbadorlar harakati dastavval Xurosonda boshlandi. Xurosonning g'arbiy qismida ular mo'g'ullar hukmronligini tugatib, mustaqil Sarbadorlar davlatini barpo etadi. Bu davlatning markazi Sabzavor shahrida bo'lib, 1337-yildan 1381-yilga qadar 45 yil hukm surgan.<sup>2</sup>

Tarixiy adabiyotlarda „sarbador“so'zi „bosh dorga“ deb aniq talqin etilmasdan tushuntiriladi. Bu adabiyotlarda yozilishicha „agar g'alaba qozonsak, xalqni mo'g'ul zulmidan ozod qilgan bo'lamiz, bordi-yu g'alabaga erisha olmasak, unda dorga osilishga tayyormiz, chunki azob-uqubatlarga ortiq bardosh berishimiz mumkin emas“ deb aytishgan.

Sarbadorlar xalqni mo'g'ul zulmiga qashi kurashishga chaqirganlar, xalqqa murojaat qilib: “dorga osilganlarni qarang boshni yuqori ko'tarib, zulmga, qarshi bo'lib tik qaraganimiz avzal deb boshlarini tikkanlar”. Mazkur vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan so'zlar 1365-yilda Samarqandda bosh ko'targan qo'zg'olonchilarning shiori sifatida jaranglagan edi. Qo'zg'olonchilar sarbadorlar nomi bilan atalgan edi. Sarbadorlar qo'zg'olonining arafasida mamlakatda mo'g'ul shahzodalarining yakkahokimlik uchun kurashi qizg'in tus olib, hayot

<sup>1</sup> Kh-davron.uz elektron jurnali

<sup>2</sup> O'zbekiston tarixi O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi. Toshkent: Fan nashriyoti. 2015-yil. 210-212-bet.

g'oyatda og'irlashgan. Amir Husayn va Ilyosxo'ja o'rtasidan kurash katta talafot va parokandalikni yuzaga keltirmoqda edi. 1365-yilda ular o'rtasida Toshkent bilan Chinoz o'rtasida yog'ingarchilik paytida jang bo'ldi. Natijada Amir Husayn yengiladi. Bu g'alabadan ruhlangan Ilyosxo'ja Xo'jand va Jizzax hudularni egallagandan so'ng, Samarqandni egallash maqsadida yo'lga chiqadi. Bundan xabar topgan Samarqand shahrining aholisi o'zining kuchi bilan dushmanga zarba berishlikka ahd qiladi. Ammo, Samarqandning mudofaa devori Chingizxon tomonidan buzib tashlanib hamon xaroba holatda edi. Dushman kuchi yaqinlashib kelayottani haqida xabar olinishi bilan shahar maydoniga minglab kishilar to'planadi. Bu yerda madrasa talabasi Mavlonzoda, paxta tituvchilar mahallasidan Abu Bakr Kalaviy va Xurdaki Buxoriylar xalqni bosqinchilarga qarshi kurashishga da'vat etdilar. Mavlonzoda so'zga chiqib dedi: «Musulmon ahli! Hozirda g'ayridinlar — mo'g'ullar kuchli qo'shin bilan bizlarning mol-mulkimizni talon-taroj etish uchun kelmoqdalar. Xalqdan turli soliqlarni undirayotgan va o'zlarining xohishlaricha sarflayotgan hokimiyat vakillari og'ir kunda musulmonlarni tashlab qochdilar. Aytinglarchi, kim islom dinini himoya qilish uchun rahbarlik va mas'uliyatni zimmasiga oladi?» Jamoa ahli yakdillik bilan Mavlonzodani o'zlariga sardor etib sayladilar. Shundan keyin u xalqni dushmanga qarshi jang qilishga chaqirib harbiy tayyorgarlikni boshlab yubordi. «Harakatning rahnamolari, — deb to'g'ri yozadi ingliz olimi Hilda Hookham, — madrasa talabasi Mavlonzoda, Nadof ya'ni paxta tituvchi Abu Bakr barcha shahar ahliga murojaat qilib, o'z himoyalari uchun jangga o'tlanishga da'vat etishdi. Masjid yonidagi maydonda umumshahar majlisi chaqirilib turli tabaqalarga mansub bo'lgan o'n minggacha odam yig'ildi. Majlisda Mavlonzoda shahar hokimlarini qo'rqqoqlik va ochko'zlikda ayblab, boshiga og'ir kun kelganida xalqni o'z holiga tashlab, qochib ketganlarini aytdi». <sup>3</sup>

«Qanchalik katta tovon to'lamaylik, baribir Samarqandni qutqarib qola olmaymiz. Shahami omon saqlashning yolg'iz yo'li o'z hayotimizni himoya qilib, jangga o'tlanmakdir».

Shaharning katta-kichik aholisining barchasi ko'tarinki ruh va g'ayrat bilan shahar mudofaasini mustahkamlashga nima zarur bo'lsa barchasini amalga oshirdilar. Chunonchi tor ko'chalarning ochiq tomoniga to'siqlar qurildi. Baquvvat va jasoratli yigitlar qurollantirilib vazifalari belgalandi. Ularning soni 10 ming kishini tashkil etgan. Mavlonzoda uch kechayu uch kunduz uxlamay qo'l ostidagi vatan himoyachilarining jangovarligini ta'minlashga qaratilgan muhim choralarni ko'rdi. Ilyosxo'ja va qo'shinlari shaharni qamal qilib jangni boshladilar. Mavlonzoda ularni tuzoqqa tushirish uchun shaharga kiradigan bir ko'chani ochiq qoldirib, o'zi ikki ming kishilik qurol- langan odamlari bilan pistirmada turadi. Mo'g'ullar xotirjamlik bilan o'sha ko'chaga kirganida pistirmadagi shaharliklarning to'satdan qilgan hujumiga bardosh berolmay ming kishini yo'qotib chekinadilar. Boshqa ma'lumot bo'yicha mog'ullardan ikki ming kishi o'ldirilgan. Ertasi kunida ham mo'g'ullar hujumini ehtiyotlik bilan qaytardilar. Biroq g'alabaga erisha olmay, qamalni tashlab ketishga majbur bo'ldilar. Sarbadorlarning bu g'alabasi katta ahamiyat kasb etib, ovozasi mamlakat tarqaldi. Shunisi kishilarni hayratga soldiki, yaqindagana Amir Husaynning kuchli qo'shinini tormor etgan Ilyosxo'ja, oddiy xalq tomonidan sharmandalarcha mag'lubiyatga uchratildi. Samarqandliklarning g'alabasi haqida xabarni Amir Husayn ham, Amir Temur ham mamnuniyatlik bilan qarshi oldilar. Bu vaqtda Amir Temur Balxdan Qarshiga kelib harbiy tayyorgarlik ko'rmoqda edi. Sarbadorlar hokimiyatni qo'lga olib bir yil mobaynida shaharni boshqarib turishdi. Bu vaqtda «Sarbadorlardan chiqqan

<sup>3</sup> Hilda Hookham. History of the Mongols and the Sarbadars. London: Oxford university Press, 1962-yil 95-98-betlar.

rahnamolar shaharda o‘z hokimiyatlarini mustahkam o‘rnatib hukmdorlar va shuhratparast amirlarni bir chetga surib qo‘ya boshlagan edilar». Haqiqatan ham ular mo‘g‘ullarga tayanib boylik orttirgan va zulmni kuchaytirgan ayrim yuqori tabaqa vakillarini jazolaganlar. Sarbadorlar dinni niqob qilib haddidan oshgan nufuzli kishilarni ham jazolagan bo‘lsalar kerakki, ulami «dinsiz»likda ayblovchi tuhmat so‘zlari tarqatildi. Amir Husayn o‘zining ashaddiy dushmani Ilyosxo‘jani mag‘lubiyatidan xursand bo‘lgandi. Samarqandga elchilar bilan tuya qilich va hokimiyatni boshqarishga vakolat beruvchi yorliqni jo‘natgan. Bu elchi va sovg‘alar sarbadorlar tomonidan mamnuniyatlik bilan qabul qilingan. Ular Qarshida istiqomat qilayotgan Amir Temurga sovg‘alar yuborishgan. O‘z navbatida Sohibqiron sarbadorlarga elchisini yuborib maslahatlarini yetkazgan. Amir Husayn 1366-yil bahorida Samarqandga yurishi oldidan Sarbadorlar huzuriga elchi yuborib ularga to‘la ishonishi va hurmat qilishini ma‘lum qiladi. U Samarqand yon bag‘ridagi Konigil degan so‘lim joyga o‘rnashganda sarbador boshliqlari sovg‘alar bilan kutib oladi. Ammo sarbadorlar ertasiga Amir Husayn huzuriga kelishayotganlarida uning odamlari hibsga oladilar. So‘ngra ular osib o‘ldiriladi. Shunday qilib Amir Husayn Sarbadorlarga ko‘rsatgan hurmati va yuborgan sovg‘alari shum niyat bilan qilingan siyosat bo‘lib chiqdi. U sarbadorlarning kuch-qudratidan xavfsirab ko‘zbo‘yamachilik bilan ularda ishonch hosil qilish va to‘qnashishni oldini olish rejasini tuzgan. Uning bunday qilishi bejiz bo‘lmagan, albatta.<sup>4</sup>

Zero, Sarbadorlar shaxsan Ilyosxo‘jaga emas balki umuman mo‘g‘ullarning hukmronligiga qarshi kurashgan. Buni yaxshi tushungan Amir Husayn sarbadorlarning uning o‘ziga ham qarshi kurashini oldini olish uchun hiyla-nayrang ishlatib, sarbadorlarning katta qismini o‘ldiradi. Ayrim olimlar bu hodisalarning ro‘y berishida Amir Husayn Amir Temur bilan birgalikda qatnashgan deb hisoblaydilar. Ammo, aslida Amir Temurning bunday qilishiga ishonish qiyin. Chunki barcha o‘rta asr manbalarida uning Mavlonzodani o‘limdan saqlab qolganligi aytib o‘tilgan. Sohibqironning bu ishni qilishi tabiiy hol edi. Chunki uni o‘zi ham mo‘g‘ullarning hukmronligiga va zulmiga qarshi bo‘lib oshkora kurashga fursatni kutmoqda edi. Shuning uchun ham sarbadorlar o‘zlarining g‘alabasi haqida dastavval elchi orqali Amir Temurga ma‘lum qilgan edilar. Yuqorida ko‘rsatilganidek unga sovg‘alar ham yuborilgan. Amir Temur Sarbadorlar kurashiga xayrixohlik bilan qarab, ularning bosh sardorini o‘limdan qutqarib qolgan. Ammo Temur bilan sarbadorlarning ayrim rahbarlari o‘rtasidagi bu aloqa qaysi sabablarga ko‘ra kelib chiqqanligi hali to‘la aniqlangan emas. Mo‘g‘ul zulmi asoratiga qarshi kurash va Movarounnahrda mustaqil davlat tuzish uchun olib borilgan harakatlar Sarbadorlarning ayrim rahbarlarini, birinchi navbatda, ularning ilhomchisi Mavlonzodani va Temurni bir-birlariga yaqinlashtirgan, ko‘makdosh etgan. Xuddi shu sababdan sarbadorlar boshliqlari Temur faoliyatining asosan birinchi davrida yuqoridagi maqsadi amalga oshirish uchun Temurni qo‘llab-quvvatlaganlar, unga yordam berganlar». Mazkur satrlarda bayon etilgan fikrlarga to‘la qo‘shilish mumkin. Buni quyidagi ma‘lumot ham tasdiqlaydi. Chunonchi, Amir Temurning mo‘g‘ullarga qarshi qaratilgan faoliyati uni Eronda yuzaga kelgan Sarbadorlar davlati bilan do‘stlashishga olib kelgan. Bu yerda 1337 yilda Sarbadorlar mo‘g‘ullarning hukmronligini ag‘darib, o‘zlarining davlatini tashkil etgan edi. Bu davlat 1581-yilgacha hukm surgan edi.

---

<sup>4</sup> Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent: Sharq nashriyoti. 1997-yil. 58-60-betlar.

«Xoja Ali Muayyad taxtda o'tirgan vaqtda, sarbadorlar mamlakati ziyod boidi: Turshiz, Ko'histon, Tabs va Kilikini bosib oldi va Domg'ondan to Saraxsgacha bo'lgan yerlarni o'zining tasarruf tutamiga kiritdi. Ali Muayyad o'zining hukmronligi davrida ulug' amir, buyuk Sohibqiron Temur Ko'ragon janoblari bilan hamjihat va sadoqatli bo'ldi, unga do'st tutundi va xushmuomalada bo'ldi.

Xoja Ali Muayyad bir necha bor Amir Vali bilan to'qnashdi va ularning bir-birlariga dushmanligi benihoya kuchayib ketdi. Amir Vali Sabzavor shahrini qamal qildi va Xoja Ali Muayyad ulug' Amir Temur Ko'ragondan madad so'radi va Totu nomli kishini Samarqandga, Sohibqiron huzuriga yubordi. To'rt oydan so'ng buyuk Sohibqiron Amir Temur Xurosonga lashkar tortdi.

Xoja Ali Muayyad Saraxsga ulug' Amir Temur Ko'ragonning istiqboliga bordi, sultonlik marhamatiga musharraf bo'ldi. Ulug' Amir Temurga uning sadoqati voqe bo'ldi va Xoja Ali Muayyad Xuroson mamlakatini Amir Temurning tasarrufiga topshirdi. O'zi Sohibqironning mulozimatiga mashg'ul bo'ldi.

Xoja Ali Muayyad yetti yil Sohibqiron bilan hamsuhbat va unga mulozim boidi. Uning jiyanlari va boshqa qarindoshlari ham o'sha mulozamatda unga hamroh edilar shunday matonat ko'rsatdilar-ki, g'animlarning hukmronligi va istilo qo'li ul shahar aholisining nomus va moli etagiga yetmadi. Binobarin Amir Temurning sarbadorlarni qo'llab-quvatlashiga shubha yo'q. Shunday ekan, nima uchun u Samarqandda Amir Husayn sarbadorlarni jazolayotganda unga qarshi kurashmadi degan savol tug'iladi. Sohibqiron sharoit taqozosiga ko'ra bu ishni qila olmas edi. Chunki Amir Husayn katta kuch va salohiyatga ega bo'lib, hali unga qarshi oshkora kurashishi uchun Sohibqironida yetarli imkoniyat bo'lmagan. Shu bois u Amir Husayn bilan murosa qilishdan boshqa iloji bo'lmagan. Shunga qaramay u imkoni boricha harakat qilib Mavlonzodani o'limdan saqlashga erishadi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Sohibqiron sarbadorlarni jazolamaslik xususida Amir Husayn bilan bahslashgan. Shuning uchun ham Sohibqiron bilan Amir Husayn o'rtasida o'sha masala bo'yicha nizo paydo bo'lgan, degan fikrlar mavjud. «Husayn sarbadorlarning boshliqlarini, — deb yozadi ingliz olimi, — mudhish jinoyatlarda aybladi. Abu Bakr sarbadorlarning boshqa rahnamolari qatori qatli etilibdi. Faqat Mavlonzodaga shafqat qilishibdi — sarbadorlarni dor ostiga olib kelishganda Temur uning gunohidan o'tishni so'rabdi. Shu ishi tufayli Temurga butun Samarqand ahlining mehri tovlanibdi. Husaynga esa, aksincha, zolim sifatida la'nat o'qishibdi. Ehtimol Amir Temur sarbadorlar bilan, ularning orasidagi aslzoda kimsalar bilan yaqin aloqa o'ratgandir. Husayn bilan uning o'rtasida ana shu sarbadorlarga nisbatan tutilgan siyosat yuzasidan ixtilof kelib chiqqandir».<sup>5</sup>

Sarbadorlar — XIV asrning 30–80-yillarida Eron va O'rta Osiyoda ko'tarilgan xalq harakati. Unda keng xalq ommasini — dehqonlar, hunarmandlar, ziyolilar, mayda yer egalari va qullar qatnashgan. Xofizi Abro' "Zubdat ut-tavorix" asarida sarbadorlarning Samarqandda hokimiyatni o'z qo'llariga olishining tafsilotlarini bayon etgan. Chunonchi, Amir Husayn va Amir Temur "Loy jangi" da mo'g'ullardan yengilib, Amudaryo suvining narigi qirg'og'iga — Balx tomonga o'tib ketgach, fursatni g'animat bilgan mo'g'ullar Samarqand atrofiga yetib kelganlar. Samarqand aholisining xosu xomi bu ahvoldan tashvishga tushib, shahar jome masjidiga yig'ilganlar. Shaharni mo'g'ullardan mudofaa qilish tadbirlari xususida turli fikrlar

<sup>5</sup> Hamid Ziyoyev Buyuk Amir Temur saltanati va [uning taqdiri](#). Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti. 2008-yil. 93-98-betlar.

bildirilgan. Lekin jo'yaliroq taklif bo'lmagach, Mavlonozoda nomli Buxoro ulug'zodalaridan bo'lgan bir donishmand kishi u kamondan yaxshi o'q otar, o'ta jur'atli va dovyurak edi, yelkasi-bo'yinidan qilich osib olgandi o'rindan turib, minbarga chiqarilgan. Majlis ahliga qizg'in salom berib, baland ovozda shunday degan: “Ey, musulmonlar jamoasi! Bugun kofirlar ustunlik qilmoqda. Ular musulmonlarning xonumoni, xotin, bola-chaqasi, nomusi, yer-u moliga ko'z olaytirib keldilar. Hozir amirga muvofiq ish qursa, bo'ladigan hokim yo'q. Shu kungacha boj-xiroj degan nom qo'yib, musulmonlardan jizya olgan hokim, uni o'z xo'jasi ixtiyori bilan sarfladi, kuchli dushman paydo bo'lgach, musulmonlarni tashlab qochdi. Endi esa shahar aholisi har qancha sovg'alar tortiq qilmasin, mo'g'ullardan xalos bo'lolmaydi. Qiyomat kuni sizlar nima deb javob berasizlar? Sizlardan birortangiz musulmonlarni zulmu sitamdan saqlab qolishni, islom shahrini muhofaza qilishni uddalaysizmi?!” Toki biz unga ershanib xizmatida bo'laylik! Samarqandning barcha akobir, ashrof va buzrugvorlari xomush tortib, hech biri javob bermadi. Shundan keyin Mavlonozoda dedi: “Siz o'z zimmangizga olib, jur'at qadamini ilgari qo'ymas ekansiz, agar men o'z zimamga olsam, madad berib, hamrohlik qilasizmi yoki yo'qmi?” Bari avval xos bu gapni ma'qullab birdan hayqirdi va uni o'zlariga yetakchi sardor etdilar.

Shundan so'ng Mavlonozoda shahar mudofaasiga tayyorlana boshladi. Shahardagi barcha darvozalarni berkitdi. Ko'chalar, bog'lar atrofiga g'ovlar qurdirdi. Faqat bir ko'chani ochiq qoldirib, shu yerda Mavlonozodaning o'zi besh yuz kishisi bilan pistirmada turdi. Dushmanning qarovul qismlari hech kim qarshilik ko'rsatmaydi degan o'yda, ko'ngillari hush holda shaharga kirib kelganda, Mavlonozodaning ishorasi bilan do'mburalar ularni tosh bilan savaladilar. Tomlardan o'q-yoylar, toshlar yog'dirildi. Natijada mo'g'ullarning ming askari majruh bo'ldi, yuztasi esa o'ldirildi.

Ertasi kuni ham mo'g'ullar butun kuchlarini tashlab hujum qilindi. Turli harbiy hiylalar qo'llasalar hamki shahar egalari qochmadilar va Samarqandni bosib ololmasliklarini tushundilar. Keyingi kun Samarqand atrofiga yerlarni taladilar. Bir necha kun o'tgach, ularning otlari va bo'z viloyatlariga qaytishga azm qildi. Bu xabar Amir Sohibqironiga yetgach, u Abbos Bahodirga bir necha otliq bilan suvdan kechib o'tib, viloyatga kirish va o'g'lining ahvolini o'rganish hamda unga xabar yetkazishni buyurdi. Mavlonozoda ham ayni paytda ahvolni bilib kelish uchun bir necha otliq bilan birga keldi, va uni o'ldirdi va Amir Temur oldiga keltirdi. Undan bor gapni bilib oldilar va voqealar sharhini maktubga bitib, amir Husaynga yubordilar. Amir Temurning o'zi ham amir Husayn tomon yo'l oldi. Maktub amir Husaynga etganida, u dushmanlar mag'lub bo'lib qochganliklari uni xavotirga soladi. Ikki-uch kundan keyin Amir Temur yetib keldi. Sarbadorlar xaqida fikr almashdilar va chora-tadbirlar muhokama qildilar. Oxiri ularni hiyla bilan o'ldirishga qaror qildilar. Shundan so'ng sarbadorlarga tinchlik tilab noma yozdilar, elchilar orqali ularga hil'at, kamar, shamshirlar jo'natdilar. Elchilarni yuborgach, amir Husayn Samarqandliklarning xotirjam bo'lishi uchun Amir Temurni ham yubordi. Amir Husayn o'zi qishlash uchun Soli Saroyga ketdi. Amir Temur esa o'z yurtiga keldi. U erdan chiqib, Kesh va Naxshabga yo'l oldi.

Qarshiga etgach, qal'a qurishga kirishdi va u yerda qishlashni boshladi. Sarbadorlar amir Husaynning sovg'alarini olib, yaxshi niyatda ekan, deb quvondilar. Amir Temurning Qarshiga kelganligini bilib, har bir amirga alohida sovg'a-salomlar tayyorlab, Amir Temur huzuriga yubordilar. Sarbadorlar dilida biror xavf-xatar xissi qolmadi. Shu zaylda qish xam o'tib ketdi.

Xofizi Abro' amir Husayn qo'llagan hiyla-nayranglar xususida batafsilroq ma'lumotlar bergan. Chunonchi, amir Husayn Balx, Badaxshon, Kunduz, Bag'lon, Andxud va Shibirgondan

lashkarlarini to‘plab, Samarqand tomon yuzlangan. U sarbadorlarga maktub yuborib, unda ularga ishonch bildirib, o‘z amirlaridan xam yaqin tutishini e‘lon qilgan va Samarqand yaqinidagi Konigil mavzesiga etgunicha uning huzuriga kelmaslikni iltimos qilgan. Sarbadorlar uning takallufini chin bilib, fursatni qo‘ldan boy berganlar. Amir Husayn Konigilga yetib kelgach, unga izzat-ikrom bildirish, tortiqlarini etish uchun istiqboliga chiqqanlar va xizmatga shay bo‘lib turganlar Amir Husayn birinchi kuni sarbadorlarga iltifotlar ko‘rsatgan. Bundan sarbadorlar yanada ruhlanib, ko‘ngillaridan xavf-xatar ko‘tarilib, ertasi kuni ko‘proq sovg‘alar va kamyob mollar bilan unig huzuriga yo‘l olganlar. Karbosga yetganlarida amir Husaynning buyrig‘iga binoan ularning hammasi qo‘lga olingan. Faqat Mavlonzoda Samarqandiyini Amir Temur iltimos qilib, dor tagidan qutqarib olgan.<sup>6</sup>

Xulosa qilib aytganda, Sarbadorlar qo‘zg‘oloni mo‘g‘ullar hukmronligiga qattiq zarba berdi va keyinchalik Amir Temurning mustaqil davlat tuzish harakatlariga ruhiy va siyosiy asos bo‘ldi. Amir Temur sarbadorlar kurashiga xayrixohlik bilan qaragan, ular bilan aloqada bo‘lgan va keyinchalik Eron sarbadorlari davlati Xoja Ali Muayyad bilan ham hamkorlik qilgan. Garchi Amir Husayn kuch-qudrati tufayli qo‘zg‘olonni bostirgan bo‘lsa-da, xalqning ozodlik va adolat uchun kurashi Amir Temur saltanatining shakllanishida muhim rol o‘ynadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O‘zbekiston tarixi O‘zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi. Toshkent: Fan nashriyoti. 2015-yil. 210-212-bet.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent: Sharq nashriyoti. 1997-yil. 58-60-betlar.
3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. 1996-yil. 413-414-betlar.
4. Hamid Ziyoyev Buyuk Amir Temur saltanati va uning taqdiri. Toshkent: Ma‘naviyat nashriyoti. 2008-yil. 93-98-betlar.
5. Hilda Hookham. History of the Mongols and the Sarbadars. London: Oxford university Press, 1962-yil 95-98-betlar.
6. Kh-davron.uz elektron jurnali

---

<sup>6</sup> Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. 1996-yil. 413-414-betlar.